

## **TILDA RANGLAR NOMINATSIYASI VA ASSOTSIATSIYA**

**Lutfullayeva Durdona**

*O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti professori, filol. fan. dok.*

[1965ddd@mail.ru](mailto:1965ddd@mail.ru) O‘zbekiston,

Toshkent

**Аннотация.** Ushbu maqolada o‘zbek xalqining ranglarni idrok etishi, ranglar bo‘yicha bilim va tasavvurlari va uni tilda aks ettirishi masalasi tahlil qilindi. Turli til egalarida ranglar bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan assotsiatsiyalar aniqlanib, o‘zaro qiyoslandi; assotsiatsiyalarning milliy-madaniy xususiyatlari ochib berildi. O‘zbek tili egalarida hosil bo‘ladigan ranglar assotsiatsiyasining individual, jamoaviy xarakteri ko‘rsatildi. Bunday assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishiga turki beruvchi ekstralingvistik omillar aniqlandi.

**Калит so‘zlar.** Ranglar idroki, ko‘ruv sezgisi, ranglar nominatsiyasi, verbal assotsiatsiyalar, ranglar assotsiatsiyasi.

**Аннотация.** В данной статье проанализирована проблема восприятия узбеками цветов, знаний и представлений о цветах и их отражение в языке. Были выявлены и сопоставлены ассоциации, связанные с цветами, у носителей разных языков; выявлены национально-культурные особенности объединений. Показан индивидуальный и коллективный характер цветных ассоциаций, формируемых узбекоязычными людьми. Выявлены экстралингвистические факторы, способствующие образованию подобных ассоциаций.

**Ключевые слова.** Восприятие цвета, зрительное восприятие, название цвета, словесные ассоциации, цветовые ассоциации.

**Abstrakt.** This article analyzes the problem of Uzbeks' perception of colors, knowledge and ideas about colors and their reflection in language. Associations associated with colors were identified and compared among speakers of different languages; The national and cultural characteristics of the associations have been identified. The individual and collective nature of colored associations formed by Uzbek-speaking people is shown. Extralinguistic factors contributing to the formation of such associations have been identified.

**Key words.** Color perception, visual perception, color naming, verbal associations, color associations.

Ranglarning turfa xilligi, tilda uni ifodalovchi leksik birliklarning qadimiyligi, rang bildiruvchi so‘zlarnig tarixiy-geografik, ijtimoiy, lingvistik shart-sharoitlar bilan bog‘liq holda shakllanganligi, milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘lanishi, barcha tillarda rang-tus ifodalashning o‘ziga xosligi, inson nutqiy faoliyatidagi eng faol birliklardan biri sifatida o‘rin olishi, rang-tus bildiruvchi so‘zlarning metaforik konstruksiyalar tarkibiy komponenti sifatida ko‘p uchrashi, turli ramziy ma’nolarga egaligi bunday birliklar tadqiqi keng qamrovligi va turli fan sohalarida o‘rganilishini dalillaydi. Shu sababli ranglarning fizika, falsafa, kognitologiya, psixologiya,

madaniyatshunoslik, estetika, tibbiyot, tasviriy san’at, lingvistika, mifologiya kabi fan sohalarida tekshirilishi bejiz emas.

Rang fenomeniga turli fan sohalarida e’tibor qaratilishi ushbu tushunchaning ko‘p qirraliligi, ranglarning xususiyati, nomlanishi kabilarni o‘rganishga qiziqish kuchliligini ko‘rsatadi.

Ranglar, rang ottenkalari tilda verbal ifoda topishi natijasida u tilshunoslikning o‘rganish obyektiga aylangan. Ammo tilshunoslik rang ifodalovchi so‘zlar tadqiqida rang fenomenini o‘rganuvchi boshqa fanlarga ham murojaat qiladi. Masalan, rangning nomlanishi inson bilimlari, ranglarga bo‘lgan milliy-madaniy qarashlari, urf-odatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu o‘rinda tilshunoslik kognitologiya, madaniyatshunoslik sohaları bergan xulosalarni inobatga oladi.

Tilshunoslikda ranglar nominatsiyasi, rang-tusning qanday til birliklari orqali ifodalanishi, ularning leksik-semantik, grammatik, derivatsion xususiyatlari; iboralar, maqollar, o‘xshatishlarni hosil qilishdagi ishtiroki; tilda olamning rang manzarasi, rang-tus bildiruvchi birliklarda millat qadriyatlarining namoyon bo‘lishi, nutqda rang-tus bildiruvchi birliklarning insonning ijtimoiy holati, kommunikativ maqsadi, nutq vaziyati kabilari bilan bog‘liq holda tanlanishi, badiiy nutqda tasviriylik, ta’sirchanlikni hosil qilishda qo‘llanilishi masalasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, har bir inson voqelikni dastlab sezgi organlari orqali his qiladi. Ammo tashqi olamdagi narsa-predmetlarning shakli, hajmi, miqdori, rangi, hidi, qattiq-yumshoqligi kabi turli-tuman xossalari; inson va boshqa jonli mavjudotlarning tashqi ko‘rinishi, ovozi, hatti-harakati, xarakter-xususiyati kabilarni idrok etishida sezgi a’zolarining faollik darajasi har xil. H.Shamsiddinov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “...bu jarayonda ko‘ruv sezgisiga mansub xotira tasavvurining ishtiroki eng faol hisoblanadi. Buning o‘z sabablari mavjud. Birinchidan, inson borliq haqidagi informatsiyaning asosiy qismini ko‘ruv sezgisi a’zosi – ko‘z orqali oladi: narsa-hodisaning shakli, rangi, holati, miqdori, harakati haqidagi ma’lumotlar ko‘ruv sezgisi orqali shakllanadi. Ikkinchidan, ko‘ruv sezgisi orqali olinadigan informatsiya narsa-hodisaning bevosita kontaktisiz muayyan masofa orqali ham shakllanishi mumkin. Shu sababli ham nom berilishi kutilayotgan narsa-hodisaga nom berishda ko‘ruv xotira tasavvurlari assotsiatsiyasining o‘rni beqiyos va unumlidir”.[11:19]

Darhaqiqat, inson ko‘ruv sezgisi yordamida tashqi olamdagi narsa-predmetlar, tirik mavjudotning tashqi qiyofasi, shakli, rangi, miqdori, hatti-harakati, holati, joylashuv o‘rni kabilari haqida bilimga ega bo‘ladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, inson ko‘zi to‘r pardasida yorug‘likka sezgir bo‘lgan taxminan 125 million hujayra mavjud. Shu

sababli insonning ko‘zi 10 million rangni farqlash imkoniyatiga ega. Biroq u real holatda 100 ta, rassom, dizaynerlar esa 150 ta rang ottenkasini farqlay olishadi.[10] Demak, ko‘ruv sezgisi olamni bilish, uni idrok etishning eng muhim va birlamchi vositasi sanaladi. Ammo, e’tirof etish joizki, tashqi olamdagi ba’zi predmetlarning ko‘ruv sezgisi orqali his qilingan belgi-xususiyatlari insonning boshqa hissiy organlari orqali ham idrok etilishi mumkin. Masalan, narsa-predmetlarning shakliy tuzilishini nafaqat ko‘z orqali, balki teri sezgisi, xuddi shunday, miqdoriy belgisini ko‘ruv va teri sezgisi orqali anglash mumkin. Insonning biror jismoniy yoki nutqiy harakati, ruhiy holati haqida ularga ishora qiluvchi tovushlar (masalan, uyni supurish, idishlarni yuvish; shivirlash, chaqirish; to‘ng‘illash, dodlash kabi jismoniy, nutqiy harakatlarni amalga oshirish jarayonida chiqadigan tovushlar)ni eshitish orqali ma’lumot olish imkoniyati mavjud. Biroq predmetlarning rang-tus belgisi haqidagi tasavvurlar faqat ko‘ruv sezgisiga asoslanadi. Mazkur holat tildagi rang-tus bildiruvchi birliklarni insonning ko‘ruv sezgisi imkoniyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganish lozimligini bildiradi. Shunga ko‘ra rang-tus bildiruvchi birliklarni tilda insonning ko‘ruv sezgisi bilan bog‘liq holda hosil bo‘luvchi birliklar sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

Tabiatdagi ranglarning tilda ifodalanishi masalasini o‘rganishda, avvalo, insonning ranglarni qanday idrok etishi, rang idrokiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatishini aniqlash muhim. Olimlar inson rangni qanday idrok etishi haqida bahs yuritishdan oldin tabiatda ranglar mavjudmi yoki mavjud emasmi degan savolga javob qidirishgan. Ayrim olimlar tabiatda ranglar turfa xil va miqdor jihatidan ko‘pligi haqida fikr yuritishadi, biroq inson ongi ularning hammasini ham idrok eta olmasligini bayon qilishadi. Masalan, S.S.Alekseyev inson ko‘zi 600 va undan ko‘p (eng qorong‘ulikdan to eng yorug‘likkacha bo‘lgan) rangdan rangga o‘tishlarni bemalol ajrata olishini ta’kidlaydi. [1:16] F.N.Shemyakin esa inson ko‘zlari predmetlarda ajrata oladigan ranglar miqdori taxminan 500 mingdan 2,5 million miqdorni tashkil etishi haqida ma’lumot beradi.[ P.Key boshchiligidagi Chikago olimlari tomonidan nasr etilgan “The World of Color Survey” (“Dunyo ranglari tadqiqi”) kitobida bayon qilinishicha, Yangi Zelandiyaning mahalliy maori aholisi birgina qizil rangining yuzdan ortiq ottenkasini farqlay olishadi.[12:5]

Keltirilgan ushbu dalillar asosida tabiatda ranglar mavjud va inson ularni his qiladi degan yanglish xulosaga kelish mumkin. Aslida esa ranglar inson ko‘ruv sezgisi faoliyati hosilalari ekanligi soha mutaxassislari tomonidan asoslab berilgan. Ularning fikricha, tabiatda ranglar mavjud emas, demak, tashqi olamdagi narsalar ham rang bo‘yog‘iga ega emas. Narsalarda quyoshdan kelayotgan va turli ranglar

sifatida tasavvur qilinadigan yorug‘lik nurlari aks etadi xolos, yorug‘lik nurlari inson tomonidan rang va uning ottenkalari sifatida his qilinadi. Masalan, mashhur fiziolog L.T.Trolandning qayd etishicha, rang – bu ko‘z to‘r pardasi va unga bog‘liq bo‘lgan asab mexanizmlari ish faoliyati ta‘sirida yuzaga keladigan barcha hissiy munosabatning umumiy nomi, deyarli har bir holatda oddiy odamda mavjud bo‘ladigan faollik, ma‘lum bir to‘lqin uzunligi va intensivlikdagi nurlanish energiyasiga o‘ziga xos javobdir.[7:537]

Ushbu xulosa tarafdorlaridan yana biri N.B.Frumkinaning fikricha, tabiatda umuman ranglar yo‘q, faqat yorug‘lik to‘lqinlari mavjud xolos, muayyan uzunlikdagi bu yorug‘lik to‘lqinlari insonning ko‘ruv retseptorlariga ta‘sir ko‘rsatib, miyada qayta ishlanishi natijasida insonda rang hissi hosil bo‘ladi.[8:174,9:115]

Mazkur qarash “Vikipediya”da ham qayd etilgan. Unda ranglarning hosil bo‘lishi masalasiga quyidagicha izoh berilgan: “Rang – ko‘ruv sezgisi va bir qator jismoniy, fiziologik va psixologik omillarga bog‘liq holda aniqlanadigan optik diapazondagi elektromagnit nurlanishlarning sifatli subyektiv xarakteristikasidir. Rangni idrok etish insonning individualligi, shuningdek, yorug‘lik manbasining spektral tarkibi, rangi va yorqinlik kontrasti hamda yoritmaydigan obyektlar bilan belgilanadi. Bunda metamerizm hodisasi, inson ko‘zining individual irsiy xususiyatlari (polimorf ko‘ruv pigmentlarining his qilish darajasi) va ruhiyat kabilar juda muhimdir. Sodda tilda aytganda, rang – bu inson ko‘ziga yorug‘lik nurlari tushganda paydo bo‘ladigan hissiyotdir”. [2]

Insonning ranglarni turlicha idrok etishi, shuningdek, ko‘ruv sezgisiga ega bo‘lmagan kishilarning narsalarning rang bo‘yog‘i bo‘yicha tasavvurga ega emasligi tabiatda ranglarning mavjud emasligi haqida xulosa chiqarishga asos bo‘la oladi. Bunday kishilar narsa-predmetlarning rang bo‘yog‘i haqida fikr yuritishda boshqalardan eshitgan yoki o‘zlari o‘qib-o‘rgangan ma‘lumotlarga suyanishadi. Kishilarning muayyan obyektning rangini turlicha talqin etishlari ham ranglarning inson tomonidan “kashf etilgan”ligini ko‘rsatadi.

Xullas, ko‘ruv sezgisiga ega har bir inson obyektning rang bo‘yog‘ini fiziologik xususiyati asosida idrok qiladi. Ammo tilshunoslik uchun ranglarning qanday idrok etilishi emas, balki tilda qanday nomlanishi masalasi muhim. Zero, inson ranglarni turlicha idrok etadi, shunga ko‘ra uni tilda har xil nomlaydi. Dunyoning barcha tillarida rang bildiruvchi so‘zlar har xil miqdorda va turlicha nom olgan.

Rang nomlari va ular haqidagi tasavvurlar turlicha bo‘lganligi sababli ranglar bo‘yicha turli xalqlarda yuzaga keladigan assotsiatsiyalar ham bir-biridan farqlanadi. Ammo ranglarni nomlashda predmet bo‘yog‘i, predmet va bo‘yoq o‘rtasidagi

aloqadorlik, predmet rangining boshqa bir predmet bo‘yog‘iga o‘xshatish kabilarning inobatga olinishi turli xalqlarda bir-biriga o‘xshash.

O‘zbek xalqining ranglarga nom berishida o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Bunday o‘ziga xoslik til egalarining ranglarga tavsif berishida ham kuzatiladi. Jumladan, badiiy adabiyotda rangларга тавсиф беришда иждокорнинг ранг бўйича тасаввурлари ишга тушади. Masalan, таниқли ўзбек шоири A.Oripov sahrolarda qip-qizil rangni, otliqda ko‘k rangli soqolni, Darband daryosida yashil chiroyni “kashf qiladi”:

*Bu yerlarning bori shu: qip-qizil sahro bari,  
Faqat sarob jimirlab chorlar sirli bazmga. (“Qarshi qo‘shig‘i”)*

*O‘ngirin qoqqancha ko‘k soqol otliq,  
Chiqib kelayotir hozir bu yoqdan. (“Umr o‘rtasi”)*

*Yashil chiroyingni sog‘inganimda,  
To‘yib ko‘rmoq uchun qaytarman yana... (“Darband daryosi”)*

Anglashiladiki, ijodkorlarning ranglarga tavsif berishida obrazli tafakkuri ishga tushadi. Shunga qaramay, har bir inson ranglarga tavsif berishda til jamoasida shakllangan rang tasavvuriga asoslanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi quyidagi turg‘un o‘xshatishlar til egalarining rang haqidagi umumiy tasavvurlari orqali shakllangan: *qora bulutday, tundek qora, qora ko‘mirday (ko‘mir kabi qop-qora), cho‘yandek qora, qora saqichdek; paxtaday oppoq, qordek oppoq, sutdek oppoq, sutga chayilgandek oppoq; gilosday qizil, qondek qizil, qalampirdek qip-qizil, baxmalday qizil, yoqutday qizil, shafaqday qizil; tilladek sariq, oltindek sap-sariq, mumday sarg‘ish; osmonday ko‘m-ko‘k, osmon kabi moviy* kabilar.

Misollardan anglashiladiki, ranglarning idrok etilishiga jamiyatda shakllangan milliy-madaniy qarashlar ham muhim o‘rin tutadi. Ba‘zi tilshunoslar ranglarning turlicha idrok etilishiga til ta‘sir ko‘rsatadi deb hisoblanadi. Masalan, V.fon Humbold nomli Berlin universiteti olimlari M.Mayer va R.Abdel Rahman til inson ongli ravishda idrok etadigan ranglarni oldindan belgilab beruvchi kuch ekanligini ta‘kidlashadi. Ular inson tomonidan ranglarning idrok etilishi muammosini o‘rganish maqsadida elektroensefalografiya va diqqatni chalg‘ituvchi faoliyat paradigmadan foydalangan holda 28 ta yunon, 29 ta nemis hamda 47 ta rus tilida so‘zlashuvchi kishilarda tajriba o‘tkazishgan. Nemis tilidan farqli tarzda yunon va rus tillarida ko‘k rang 2ta so‘z (masalan, rus tilida *синий, голубой*) bilan beriladi. Sinaluvchilar ko‘k rangda moviy hamda to‘q yashil rangda och yashil foni bo‘lgan 13 ta har xil rangli uchburchakka qarashgan. Faqat beshta kartadan birida fon oq rangda bo‘lgan.

Sinaluvchilar ushbu uchburchaklarga qarab, ularning sonini aytishlari lozim bo‘lgan. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatganki, ko‘k rangning och va to‘q ottenkalarini qat’iy farqlovchi yunonlar bu ranglarni ushbu tilda verbal ifodalanmaydigan yashil rangga nisbatan yuqori darajada his qilishlarini namoyish qilishgan. Ko‘k rangning och va to‘q ottenkalari uchun ham bitta rang kategoriyasidan foydalanuvchi nemis tili egalari ko‘k va yashil obyektlarni idrok etishda hech qanday farqni ko‘rsatishmagan. Rus tili egalari ustida o‘tkazilgan tajribada ham yunonlar kabi holat takrorlangan. Ushbu tajriba orqali olimlar til insonning rang kontrastlarini idrok etishida muhim o‘rin tutishini asoslashgan. [5:11]

Xullas, kuzatuvlar, o‘tkazilgan tajriba natijalari shuni asoslaydiki, insonning ranglarni nomlashida avvalo ko‘ruv sezgisi muhim rol o‘ynaydi. Inson rangni ko‘ruv organi orqali his qilmas ekan, unga nom bera olmaydi. Turli tillarda nomlarning bir-biridan farqlanishi inson omiliga bog‘liq. Inson omili til egalarida ranglar bo‘yicha hosil bo‘ladigan assotsiatsiyalarda ham ko‘zga tashlanadi.

Tilda ranglar bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan assotsiatsiyalarda jamiyat a’zolarining ranglarni qanday idrok etishi namoyon bo‘ladi. Ammo assotsiatsiyalar asosiy hollarda til egalarining yoshi, kasbi, jinsi, diniy qarashlari kabi omillar ta’sirida individual xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi 16017 yoshlardagi o‘quvchi talabalar ustida o‘tkazilgan assosiativ tajribalarda qora so‘zga berilgan ko‘mir, soch, tun, ko‘z javob reaksiyalari predmetlarning doimiy rang bo‘yog‘iga nisbatan hosil qilinganligi uchun ularni jamoaviy assotsiatsiya hisoblash mumkin. Ammo mashina, ko‘ylak kabi javob reaksiyalarini individual xarakterdagi assotsiatsiyalardir. Chunki qora rang mashina, ko‘ylak uchun doimiy rang emas, bu predmetlar turli ranglarda uchraydi. Shu jihatdan mashina, ko‘ylak javob reaksiyalari ayrim sinaluvchilarga xos individual assotsiatsiyalar hisoblanadi.

Anglashiladiki, rang-tus bildiruvchi so‘zlar bo‘yicha yuzaga keladigan verbal assotsiatsiyalar til egalarining predmetlar bo‘yog‘iga nisbatan munosabati, ushbu rangni yoqtirishi yoki xushlamasligi asosida ham shakllanadi. Y.I.Goroshko rus tilidagi rang bildiruvchi so‘zlarga nisbatan berilgan assotsiatsiyalarni tahlil qilib, olamning rus tili egalariga xos rang manzarasi xususida qiziqarli xulosalarni bayon qilgan. [3-291] L.P.Prokofyeva rus tilidagi tovush-rang assosiativligi muammosini o‘rganib, tovush va ranglarga nisbatan berilgan assotsiatsiyalarning universal, milliy va individual xususiyatlarini aniqlagan. [6-280] Demak, ranglarning idrok etilishi va rang bo‘yicha yuzaga keladigan assotsiatsiyalarda inson omili nihoyatda muhim o‘rin tutadi.

Xullas, rang-tus bildiruvchi so‘zlarga turli tillarda har xil assotsiatsiyalarning yuzaga kelishi, assotsiatsiyalarning milliy-madaniy belgilariga ko‘ra farqlanishi, til egalarida individual va jamoaviy ko‘rinishda namoyon bo‘lishi, lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog‘liq holda hosil bo‘lishi ushbu muammoning murakkabligidan dalolat beradi. Zero, ranglar bo‘yicha turli xalqlarda farqlanuvchi milliy-madaniy tasavvurlar assotsiatsiyalarda yorqin namoyon bo‘ladi. Assotsiatsiyalar til egalarining milliy-madaniy fikrlash tarzini aks ettirishi sababli ularning qiyosiy tahlili turli xalqlarning ranglar bo‘yicha tasavvurlarini aniqlashga imkon beradi. Bunday assotsiatsiyalar til egalarining tashqi olam haqidagi tasavvurlarini rang prizmasi orqali tasvirlash imkonini beradi. Bu holat tilshunoslikda rang kategoriyasi tadqiqiga integrativ yondashuvni tatbiq etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алексеев С.С. Цветоведение // Искусство. – М., 1952. – №6 . – С.16-18.
2. Википедия. Цвет // <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A6%D0%B2%D0%B5%D1%82>
3. Горошко Е.И. Изучение вербальных ассоциаций на цвета // Языковое сознание и образ мира. – М., 2000. – С. 291 -312.
4. Kay P., Berlin B., Marffi L., Merrifield W.R. The World of Color Survey. Center for the Study of Language and Information. – Chicago, 2009 <https://citeseerx.ist.psu.edu/document?repid=rep1&type=pdf&doi=4772b23a0e2f6dd4489c48771bd9a4b74a7216a3>
5. Maier M., & Abdel Rahman, R. Native Language Promotes Access to Visual Consciousness. Psychological Science, 2018. – №.29 (11). – P.1757-1772 // **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.** 10.1177/0956797618782181
6. Прокофьева Л.П. Звуко-цветовая ассоциативность: универсальное, национальное, индивидуальное. – Саратов: СГМУ, 2007. – 280 с.
7. Troland L.T. Report of Commitee on Coloremety // J. Opt. Soc. Amer., 1922. – Pp. 537.
8. Фрумкина Р.М. Цвет. Смысл. Сходство. – М.,1984. – 174 с.;
9. Фрумкина Р.М. Психоллингвистика. – М., 1992. – 115 с.
10. Что такое на самом деле цветное зрение // <https://www.linzy.ru/otvety-na-voposy/skolko-cvetov-vidit-chelovek.htm>
11. Шамсиддинов Х. Кўрув хотира тасавури ассоциацияси асосида юзага келган номлар // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. III қ. – Тошкент. 2006. – Б.19.
12. Шемякин Ф.Н. К вопросу об отношении слова и наглядного образа (цвет и его названия) // Известия Академии педагогических наук РСФСР. – М., 1960. – Вып. 113. – С. 5-20.